



KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Tashxodjayev Muxammad-Yunusxon Yusufxon o'g'li,

Qo'qon universiteti rektor yordamchisi.

tawxodjaev@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1749>

MAQOLA HAQIDA/O STAT'YE

Qabul qilindi: 16-iyun 2026-yil

Tasdiqlandi: 18-iyun 2026-yil

Jurnal soni: 18-C

Maqola raqami: 35

KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

ishlab chiqarish quvvati, quvvatni boshqarish, kichik korxona, ilmiy boshqaruv, cheklovlar nazariyasi, ishlab chiqarish strategiyasi, quvvat strategiyasi, boshqaruv tamoyillari

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqola kichik korxonalarda ishlab chiqarish quvvatini boshqarishning nazariy asoslarini yagona tizimga keltirishga bag'ishlangan. Mavzuning dolzarbligi ikki holat bilan izohlanadi. Birinchidan, O'zbekistonda kichik tadbirkorlik iqtisodiyotning yetakchi bo'g'iniga aylangan bo'lib, kichik korxonalar ixtiyorida quvvatlarni oqilona boshqarish umummilliy iqtisodiy o'sishning sezilarli zaxirasi hisoblanadi. Ikkinchidan, amaliyotda kichik korxonalar quvvatni ko'pincha tizimli ilmiy asosda emas, balki intuitiv tajribaga tayanib boshqaradi; buning sababi quvvatni boshqarish nazariyasining iqtisodiyot nazariyasi, operatsion menejment va umumiy boshqaruv fanlari o'rtasida tarqoq holda shakllanganidir. Maqolada ishlab chiqarish quvvatining mohiyati ochib berilib, u ishlab chiqarish dasturidan farqlanadi va uning turlari (loyihaviy, kirish, chiqish, o'rtaacha yillik) tizimlashtiriladi; o'rtaacha yillik quvvatni hisoblash formulasi keltiriladi. Operatsion menejment an'anasidagi effektiv quvvat tushunchasi asosida quvvatdan foydalanish darajasi va samaradorlik ko'rsatkichlari farqlanib, bu farqlanish quvvat yo'qotilishining ikki manbasini – texnik-tashkiliy cheklovlar va operativ yo'qotishlarni – ajratish imkonini berishi asoslanadi. Maktablar sintezi asosida boshqaruvning oltila tamoyili (tizimlilik, muvozanatlilik, moslashuvchanlik, uzluksizlik, iqtisodiy samaradorlik, jamlanganlik) va Fayol funksiyalarining quvvatga nisbatan mazmuni ochib beriladi. Boshqaruvning markaziy amaliy vazifasi sifatida texnologik zanjir bo'g'inlari quvvatlarini muvozanatlash va tor joylarni bartaraf etish, shuningdek quvvat zaxirasi (cushion) hajmini belgilash qarori ko'rsatiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 16 June 2026

Approved: 18 June 2026

Volume: 18-C

Paper number: 35

KEYWORDS

production capacity, capacity management, small enterprise, scientific management, theory of constraints, production strategy, capacity strategy, management principles

ANNOTATION

This article is devoted to systematizing the theoretical foundations of production capacity management in small enterprises into a unified framework. The relevance of the topic is explained by two main factors. First, small business has become a leading sector of Uzbekistan's economy, and the rational management of production capacity in small enterprises represents a significant reserve for national economic growth. Second, in practice, small enterprises often manage production capacity based on intuitive experience rather than a systematic scientific approach, since the theory of capacity management has evolved in a fragmented manner across economic theory, operations management, and general management. The article reveals the essence of production capacity, distinguishes it from the production program, and systematizes its main types (design capacity, input capacity, output capacity, and average annual capacity). The formula for calculating average annual production capacity is also presented. Based on the concept of effective capacity developed in the operations management tradition, the study differentiates between the capacity utilization rate and efficiency indicators, thereby substantiating the distinction between two sources of capacity losses: technical and organizational constraints, and operational losses. Through the synthesis of different management schools, six principles of capacity management – systematicity, balance, flexibility, continuity, economic efficiency, and integration – are identified, while the content of Fayol's management functions is interpreted in relation to production capacity management. As the central practical task of capacity management, the study emphasizes balancing the capacities of technological chain stages, eliminating bottlenecks, and determining the appropriate level of capacity cushion.

Kirish. Ishlab chiqarish quvvati korxona ishlab chiqarish tizimining moddiy asosi bo'lib, uning mahsulot ishlab chiqarish hajmi, tannarxi va raqobatbardoshligini belgilaydigan asosiy omillardan biridir. Quvvatni boshqarish – uni shakllantirish, undan foydalanish va uni rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv faoliyati bo'lib, korxona iqtisodiy samaradorligining muhim shartidir. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik iqtisodiyotning yetakchi bo'g'iniga aylangan: kichik tadbirkorlik subyektlari 2024-yilda yalpi ichki mahsulotning 54,3 foizini yaratdi va jami bandlikning qariyb 74 foizini ta'minladi [20]. 2024-yil boshiga respublikada 417,1 mingdan ortiq kichik korxona va mikrofirmalar faoliyat yuritdi [21]. Shu bois kichik korxonalarda ishlab chiqarish quvvatini oqilona boshqarish umummilliy iqtisodiy o'sishning muhim zaxirasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish quvvati korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasini belgilaydi va uning barcha resurslari–asosiy fondlar, mehnat va texnologiyaning samaradorligini bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Amaliyotda esa ko'plab korxonalarda quvvatdan to'liq foydalanilmaydi: uskunalarning bir qismi bo'sh turadi, texnologik bo'g'inlar o'rtasida muvozanatsizlik yuzaga keladi, bu esa mahsulot tannarxini oshiradi. Bunday holat quvvatni intuitiv emas, balki ilmiy asosda – tegishli nazariy tamoyillar va usullarga tayangan holda boshqarish zaruriyatini kuchaytiradi.

Biroq kichik korxonalar amaliyotida quvvatni boshqarish ko'pincha tizimli ilmiy asosga emas, balki intuitiv tajribaga tayanadi. Bunga sabab quvvatni boshqarishning nazariy asoslari iqtisodiyot nazariyasi, operatsion menejment va umumiy boshqaruv fanlari o'rtasida tarqoq holda shakllanganidir. Ushbu tarqoqlik nazariy bilimlarni yagona tizimga keltirish

va ularni kichik korxonalarning o'ziga xos sharoitiga (resurslarning cheklanganligi, yuqori moslashuvchanlik zaruriyati, talabning notekisligi) moslashtirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ishlab chiqarish quvvatini boshqarish nazariyasi bir necha ilmiy yo'nalishning uyg'unlashuvida shakllangan. Uning ilk asoslari F.Teyloming ilmiy boshqaruv nazariyasida – mehnat va uskuna ish rejimini me'yorlashtirish va standartlashtirish g'oyalarida qo'yilgan [4]. A.Fayol boshqaruvning umumiy funksiyalari (rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish va nazorat) konsepsiyasini ishlab chiqib, quvvatni boshqarishni ham qamrab oluvchi metodologik asos yaratdi [5]. Korxonaning resurslari va o'sish chegarasi sifatidagi quvvat masalasi E. Penrozning firma o'sishi nazariyasida chuqur tahlil qilingan [6].

Operatsion menejment va ishlab chiqarish strategiyasi yo'nalishida W.Skinningning "jamlangan zavod" konsepsiyasi korxona ishlab chiqarish vazifasini soddalashtirish va jamlash orqali quvvat samaradorligini oshirish g'oyasini ilgari surdi [7]. R.Hayes va S.Wheelwright ishlab chiqarish strategiyasi doirasida quvvat strategiyalari (yetaklovchi, kechikuvchi, moslashuvchi) va quvvat zaxirasi tushunchalarini asoslashdi [8]. E.Goldrattning cheklovlar nazariyasi tizim unumdorligini uning eng zaif bo'g'ini – "tor joy" belgilashini ko'rsatib, quvvatni boshqarishga yangi mantiq olib kirdi [9]. S.Nakajimaning umumiy ishlab chiqarish xizmati (TPM) konsepsiyasi quvvatni uskuna samaradorligi va yo'qotishlarni bartaraf etish orqali boshqarishga qaratildi [10]. Tizimli yondashuvning umumiy metodologiyasi esa L.fon Bertalanfining umumiy tizimlar nazariyasiga borib taqaladi [11].

Sobiq ittifoq va MDH iqtisodiyot maktabida ishlab chiqarish quvvatini rejalashtirishning balans usuli va “yetakchi bo‘g‘in” tamoyili keng ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quvvatni texnologik zanjirning asosiy bo‘g‘ini bo‘yicha aniqlash va bo‘g‘inlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashga qaratilgan [19]. Ishlab chiqarish strategiyasi yo‘nalishida quvvat ko‘lami samarasi (economies of scale) va uning chegaralari–quvvatni oshirishning ma’lum bir nuqtadan keyin salbiy ko‘lam samarasiga olib kelishi – muhim nazariy masala sifatida o‘rganilgan [8]. Ushbu yondashuvlarning barchasi kichik korxonalar uchun quvvatni boshqarishning umumiy nazariy zaminini tashkil etadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni boshqarish masalalari B.Y.Xodiyev, Sh.I.Mustafaqulov, B.O.Tursunov va hammualiflar tomonidan maxsus o‘rganilgan [15]. Sh.I.Mustafaqulov, E.V.Zarova, A.N.Tixomirova va B.O.Tursunovlar quvvatlardan foydalanishni boshqarish samaradorligini talqin qilib, uni ishlab chiqarish omillarini oqilona uyg‘unlashtirish sifatida asoslashgan [16]. Ergashev Abrorbek Raxmatulla o‘g‘li quvvatdan foydalanishni me‘yorlashtirishning uslubiy jihatlarini [18], H.Q. Qosimov va hammualiflar korxona iqtisodiyoti nazariyasini o‘rganishgan [19]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, quvvatni boshqarish nazariyasi boy va rang-barang bo‘lsa-da, u asosan yirik sanoat korxonalari kontekstida ishlab chiqilgan; kichik

korxonalar uchun uni tizimlashtirish va moslashtirish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-uslubiy xarakterga ega bo‘lib, unda quyidagi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi: tahlil va sintez (nazariy manbalarni tarkibiy qismlarga ajratish va ularni yagona tizimga birlashtirish); tizimli yondashuv (quvvatni boshqarishni o‘zaro bog‘liq elementlar tizimi sifatida ko‘rib chiqish); qiyosiy tahlil (turli nazariy maktablarni solishtirish); mantiqiy-tarixiy usul (nazariyaning shakllanish bosqichlarini kuzatish); abstraksiyalash va umumlashtirish (kichik korxonalar uchun kontseptual modelni shakllantirish).

Ma’lumot manbalari sifatida xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi.

Natijalar. Ishlab chiqarish quvvati deganda korxonaning mavjud asbob-uskunalar, ishlab chiqarish maydonlari va ilg‘or texnologiyasidan to‘liq foydalanilgan holda ma’lum davr (odatda bir yil) ichida ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan mahsulotning maksimal hajmi tushuniladi [19]. Bu tushuncha ishlab chiqarish dasturidan (haqiqiy reja) farq qiladi: quvvat–potentsial imkoniyat, dastur esa uning amalga oshirilishidir. Boshqaruv nuqtai nazaridan quvvatning bir necha turi ajratiladi (1-jadval).

1-jadval.

Ishlab chiqarish quvvatining asosiy turlari	
Quvvat turi	Mazmuni
Loyihaviy quvvat	Loyiha hujjatlarida belgilangan nazariy maksimal quvvat
Kirish quvvati	Rejalashtirilgan davr boshidagi quvvat
Chiqish quvvati	Davr oxiridagi quvvat (kirish + qo‘shilgan – chiqarilgan)
O‘rtacha yillik quvvat	Yil davomidagi o‘zgarishlarni hisobga oluvchi o‘rtacha quvvat

O‘rtacha yillik quvvat quyidagicha hisoblanadi:

$$\bar{Q}_y = Q_{kir} + \frac{Q_q \cdot n_1}{12} - \frac{Q_{ch} \cdot n_2}{12},$$

bu yerda Q_{kir} –kirish quvvati, Q_q –yil davomida ishga tushirilgan (qo‘shilgan) quvvat, n_1 –uning ishlagan oylari soni, Q_{ch} –chiqarilgan (tugatilgan) quvvat, n_2 –uning ishlamagan oylari soni [19]. Quvvat, odatda, natura yoki shartli-natura birliklarida o‘lchanadi va texnologik zanjirning yetakchi bo‘g‘ini bo‘yicha belgilanadi.

Operatsion menejmentda loyihaviy quvvat bilan bir qatorda effektiv quvvat–real sharoitlarda (rejali ta’mir, uskuna almashtirish, tanaffuslar hisobga olingan holda) erishish mumkin bo‘lgan quvvat ajratiladi. Shunga mos ravishda ikki ko‘rsatkich farqlanadi: quvvatdan foydalanish darajasi (utilization) haqiqiy chiqishning loyihaviy quvvatga nisbati sifatida,

samaradorlik (efficiency) esa haqiqiy chiqishning effektiv quvvatga nisbati sifatida aniqlanadi [13]:

$$U = \frac{V_f}{Q_{loy}}, \quad E = \frac{V_f}{Q_{eff}},$$

bu yerda V_f –haqiqiy chiqish, Q_{loy} –loyihaviy quvvat, Q_{eff} –effektiv quvvat. Ushbu farqlanish quvvat yo‘qotilishining ikki manbasini–texnik-tashkiliy cheklovlar (loyihaviy va effektiv quvvat orasidagi farq) hamda operativ yo‘qotishlarni (effektiv quvvat va haqiqiy chiqish orasidagi farq) ajratishga imkon beradi.

Ishlab chiqarish quvvati bir qator omillar ta’sirida shakllanadi; ularni to‘rt guruhga ajratish mumkin (2-jadval).

2-jadval.

Ishlab chiqarish quvvatini belgilovchi omillar	
Omil guruhi	Tarkibiy elementlar
Texnik	Uskunalar soni, unumdorligi, texnik holati, texnologiya darajasi
Tashkiliy	Ish smenalari, mehnat tashkili, ta’minot uzluksizligi
Iqtisodiy	Investitsiya imkoniyatlari, moliyaviy resurslar, tannarx
Bozor	Talab hajmi va barqarorligi, mahsulot assortimenti

Ushbu omillarni hisobga olish quvvatni boshqarishning boshlang‘ich sharti bo‘lib, ularning har biri boshqaruv qarorlari uchun alohida ta’sir nuqtasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish quvvatini boshqarish – korxonaning ishlab chiqarish tizimini boshqarishning tarkibiy quyi tizimi bo‘lib, uning obyekti quvvatni shakllantirish, undan foydalanish va uni rivojlantirish jarayonlaridir. Boshqaruv predmeti sifatida quvvat hajmi, tarkibi, dinamikasi va foydalanish darajasi maydonga chiqadi. Zamonaviy talqinda quvvatni boshqarish ishlab chiqarish omillarini (uskuna, maydon, texnologiya, mehnat) mavjud hajmlarda oqilona uyg‘unlashtirish orqali ularni maksimal darajada band qilishga qaratilgan harakat sifatida tushuniladi [16].

Quvvatni boshqarish uch darajada amalga oshiriladi: *strategik* daraja (uzoq muddatli quvvat rejalashtirish, quvvatni kengaytirish yoki qisqartirish bo‘yicha investitsion qarorlar); *taktik* daraja (yig‘ma rejalashtirish, quvvatni talabga moslashtirish, resurslarni taqsimlash); *operativ* daraja (kundalik yuklamani boshqarish, tor joylarni bartaraf etish, ish rejimini tartibga solish). Ushbu darajalarning uzviyligi quvvatni boshqarishning tizimli xarakterini belgilaydi.

Quvvatni boshqarish obyekti uch o‘zaro bog‘liq quyi jarayonni qamrab oladi: quvvatni *shakllantirish* (yangi uskuna va maydonlarni loyihalash, sotib olish, o‘rnatish), undan *foydalanish* (mavjud quvvatni ish rejimi va yuklama orqali maksimal band qilish) va uni *rivojlantirish* (modernizatsiya hamda texnologik yangilanish orqali quvvatni o‘stirish). Shuningdek,

quvvatni boshqarishni quvvat rejalashtirishdan farqlash lozim: rejalashtirish boshqaruvning faqat bir funksiyasi bo‘lsa, boshqaruv undan tashqari tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag‘batlantirish va nazorat funksiyalarini ham qamrab oladi.

Quvvatni boshqarish bir necha nazariy maktabning hissasi asosida shakllangan (3-jadval). *Ilmiy boshqaruv maktabi* (F.Teylor) quvvatni ish jarayonlarini me‘yorlashtirish, standartlashtirish va uskuna ish vaqtidan oqilona foydalanish orqali boshqarishga asos soldi [4]. A.Fayolning boshqaruv funksiyalari nazariyasi quvvatni boshqarishning umumiy metodologik ramkasini berdi [5]. *Tizimli yondashuv* (L.fon Bertalanfi) korxonani va uning quvvatini o‘zaro bog‘liq elementlar tizimi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildi [11].

Ishlab chiqarish strategiyasi maktabi quvvatni raqobat ustunligining manbai sifatida talqin qiladi: W.Skinningning “jamlangan zavod” konsepsiyasi ishlab chiqarishni jamlash orqali quvvat samaradorligini oshirishni [7]. R.Hayes va S.Wheelwright esa quvvat strategiyalari va quvvat zaxirasini tanlashni asoslaydi [8]. *Cheklovlar nazariyasi* (E.Goldratt) tizimning umumiy unumdorligi uning “tor joyi” bilan chegaralanishini va aynan shu bo‘g‘inni boshqarish lozimligini ko‘rsatadi [9]. *Umumiy ishlab chiqarish xizmati (TPM)* (S.Nakajima) quvvatni uskuna samaradorligini oshirish va yo‘qotishlarni bartaraf etish orqali boshqarishga qaratadi [10]. *Resurs nazariyasi* (E.Penroz) quvvatni firma o‘shirishni cheklovchi ichki resurs sifatida talqin qiladi [6].

Quvvatni boshqarishning asosiy nazariy maktablari

Maktab / muallif	Asosiy g'oya	Quvvatni boshqarishga hisssasi
Ilmiy boshqaruv (Teylor)	Mehnat va jarayonlarni me'yoriylashtirish	Quvvat me'yorlari va standartlari
Boshqaruv funksiyalari (Fayol)	Boshqaruvning umumiy funksiyalari	Boshqaruv sikli metodologiyasi
Tizimli yondashuv (Bertalanfi)	Tizim va uning elementlari	Quvvatni yaxlit tizim sifatida ko'rish
Ishlab chiqarish strategiyasi (Skinner, Hayes, Wheelwright)	Ishlab chiqarishning raqobat roli	Quvvat strategiyasi, jamlash, zaxira
Cheklovlar nazariyasi (Goldratt)	Tor joy tizimni cheklaydi	Tor joyni boshqarish
TPM (Nakajima)	Uskuna samaradorligi	Yo'qotishlarni bartaraf etish
Resurs nazariyasi (Penroz)	Firma resurslari va o'sishi	Quvvat-o'sish chegarasi

Nazariy maktablar sintezi asosida quvvatni boshqarishning quyidagi asosiy tamoyillarini ajratish mumkin: *tizimlilik* (quvvatning barcha elementlarini va boshqaruv darajalarini o'zaro bog'liqlikda ko'rish); *muvozanatlilik* (*sopryazhennost*) – texnologik zanjir bo'g'inlari quvvatlarining o'zaro mutanosibligi, ya'ni tor joylarni yo'qotish; *moslashuvchanlik* – quvvatni talab o'zgarishlariga moslashtira olish; *uzluksizlik* – quvvatdan foydalanishni monitoring qilib borish; *iqtisodiy samaradorlik* – quvvatni oshirish xarajatlarining natija bilan mutanosibligi; *jamlanganlik* (*focus*) – quvvatni ustuvor mahsulot va bozorlarga yo'naltirish. Ushbu tamoyillar kichik korxonalar uchun ayniqsa muhim, chunki ular resurslar cheklangan va har bir yo'qotish nisbatan sezilarli bo'ladi. Muvozanatlilik tamoyili quvvatni bosqichlar bo'yicha mutanosib rivojlantirishni – bir bo'g'inni oshirishda unga bog'liq bo'g'inlarni ham mos ravishda kuchaytirishni talab qiladi. Moslashuvchanlik tamoyili esa quvvat tarkibida universal, qayta sozlanadigan uskunalarning ulushini oshirishni nazarda tutadi. Shu tariqa tamoyillar boshqaruv funksiyalarining mazmunini belgilaydi va ularni amalga oshirish mezonini bo'lib xizmat qiladi.

Fayolning boshqaruv funksiyalarini quvvatni boshqarishga tatbiq etsak, uning quyidagi funksional mazmuni namoyon bo'ladi. *Rejalashtirish* – quvvatga bo'lgan ehtiyojni bashoratlash, uzoq muddatli quvvat rejasini va yig'ma (aggregat) rejani ishlab chiqish, quvvat strategiyasini (yetaklovchi, kechikuvchi yoki moslashuvchi) tanlash. *Tashkil etish* – quvvat

bo'g'inlarini muvozanatlash, tor joylarni bartaraf etish, ish rejimini (smenalar) belgilash. *Muvofiqlashtirish* – bo'limlar va bosqichlar ishini quvvat bo'yicha uyg'unlashtirish. *Rag'batlantirish* – quvvatdan samarali foydalanishni motivatsiya bilan qo'llab-quvvatlash. *Nazorat* – quvvatdan foydalanish koeffitsientini kuzatish va chetlanishlarga javob choralari ko'rish.

Quvvatni boshqarishning markaziy amaliy vazifasi–texnologik zanjir bo'g'inlari quvvatlarini muvozanatlash va tor joylarni bartaraf etishdir. Cheklovlar nazariyasiga muvofiq, tizimning umumiy unumdorligi eng zaif bo'g'in bilan chegaralangan uchun boshqaruv e'tibori aynan shu bo'g'inga qaratilishi lozim: tor joy quvvatini oshirish butun tizim quvvatini oshiradi. Shu bilan birga, quvvat zaxirasi miqdorini belgilash muhim boshqaruv qarori hisoblanadi: katta zaxira talab o'zgarishlariga moslashuvchanlikni ta'minlaydi, ammo bo'sh turgan quvvat xarajatlarini oshiradi. Bu qarorda korxona talabning barqarorligi, mahsulot turi va moliyaviy imkoniyatlariga tayanadi.

Quvvat rejalashtirishning tipik jarayoni bir necha bosqichni o'z ichiga oladi: talabni bashoratlash; talab uchun zarur quvvatni aniqlash; mavjud quvvat bilan ehtiyoj o'rtasidagi tafovutni baholash; muqobil variantlarni (kengaytirish, lizing, kooperatsiya, subpudrat) ishlab chiqish va tanlash. Bu jarayonda quvvat strategiyasini tanlash markaziy o'rin tutadi (4-jadval).

Quvvat strategiyalari va ularning kichik korxona uchun mosligi

Strategiya	Mazmuni	Kichik korxona uchun mosligi
Yetaklovchi (lead)	Talabdan oldin quvvat oshiriladi	Past (yuqori xarajat va xatar)
Kechikuvchi (lag)	Quvvat talab tasdiqlangach oshiriladi	Yuqori (xatar past, moslashuvchan)
Moslashuvchi (match)	Quvvat kichik qadamlar bilan oshiriladi	Yuqori (bosqichma-bosqich)

Kichik korxonalarda quvvatni boshqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bir tomondan, resurslarning (kapital, malakali kadr, ma'lumot) cheklanganligi katta hajmli quvvat investitsiyalarini va murakkab boshqaruv tizimlarini qiyinlashtiradi. Boshqa tomondan, kichik korxonalar yuqori moslashuvchanlikka ega bo'lib, talab o'zgarishiga tez javob bera oladi. Shu bois ular uchun quvvat zaxirasini minimallashtiruvchi kechikuvchi yoki moslashuvchi strategiya, shuningdek quvvatni tashqi manbalar hisobiga to'ldirish (subpudrat, kooperatsiya, uskunani lizingga olish) maqbul yechim hisoblanadi. Mavsumiy talab va buyurtmalar oqimining notekisligi sharoitida quvvatni moslashuvchan boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi.

Kichik korxonalarda quvvatni boshqarishning muhim vositalaridan biri – ishlab chiqarishning bir qismini tashqi ijrochilarga topshirish (subpudrat, autorsing) va boshqa korxonalar bilan kooperatsiya orqali quvvatni to'ldirishdir. Bu yondashuv katta kapital sarfisi quvvatni kengaytirish va talab pasayganda ortiqcha xarajatlardan qochish imkonini beradi. Shuningdek, uskunani sotib olish o'rni lizingga olish kichik korxonalarga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Nazariy jihatdan bu "jamlangan zavod" tamoyiliga mos keladi: kichik korxona o'z quvvatini eng ustuvor, o'zi raqobatbardosh bo'lgan bosqichga jamlaydi, qolgan bosqichlarni esa kooperatsiya orqali qoplaydi. Klaster va kooperatsiya aloqalarining rivojlanishi bu strategiyani amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va raqamlashtirishga qaratilgan davlat siyosati (imtiyozli kreditlash, klaster va kooperatsiya mexanizmlari) kichik korxonalarda quvvatni boshqarishning tashqi shart-sharoitlarini yaxshilaydi [2]. Bu esa nazariy asoslarni amaliyotga tatbiq etish uchun qulay muhit yaratadi.

Muhokama. Yuqoridagi tahlil quvvatni boshqarish nazariyasining rang-barangligini va uni yagona tizimga birlashtirish zaruriyatini ko'rsatadi. Turli maktablar quvvatni boshqarishning turli qirralarini yoritadi: ilmiy boshqaruv – me'yoriylash va standartlashni, ishlab chiqarish strategiyasi – quvvatning strategik-raqobat rolini, cheklovlar nazariyasi – tor joylarni

boshqarishni, TPM – yo'qotishlarni bartaraf etishni, resurs nazariyasi – quvvatning o'sishdagi o'rini. Kichik korxonalar uchun bu nazariyalar bir-birini istisno qilmaydi, aksincha, bosqichma-bosqich qo'llaniladigan yaxlit boshqaruv mantiqini tashkil etadi.

Shu asosda kichik korxonalar uchun quvvatni boshqarishning konseptual modelini taklif qilamiz. Model to'rt qatlamdan iborat: (1) *nazariy asos* – ilmiy boshqaruv, tizimli yondashuv, ishlab chiqarish strategiyasi, cheklovlar nazariyasi va TPM sintezi; (2) *tamoyillar* – tizimlilik, muvozanatlilik, moslashuvchanlik, uzluksizlik, iqtisodiy samaradorlik va jamlanganlik; (3) *funksiyalar* – rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish va nazorat; (4) *kichik korxonaga moslashtirish* – moslashuvchan quvvat strategiyasi, tashqi kooperatsiya, lizing va raqamli monitoring. Ushbu qatlamlar yagona boshqaruv siklida bog'lanadi: nazariy asos tamoyillarni belgilaydi, tamoyillar funksiyalar mazmunini yo'naltiradi, funksiyalar esa kichik korxona sharoitiga moslashtirilgan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston sharoitida taklif etilayotgan model kichik korxonalarni raqamlashtirish, klaster va kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish hamda davlat ko'magi mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilganda eng samarali natija beradi. Bunda strategik daraja tarmoq va hudud miqyosidagi quvvat siyosati bilan, operativ daraja esa korxona ichidagi kundalik boshqaruv bilan bog'lanadi. Natijada quvvatni boshqarish yakka korxona doirasidan chiqib, tarmoq darajasidagi muvozanatlashtirishga xizmat qiladi.

Model kichik korxonalarga quvvatni boshqarishni intuitiv amaliyotdan tizimli, ilmiy asosga o'tkazish imkonini beradi. Uning amaliy joriy etilishi korxona miqyosida tor joylarni aniqlash va bartaraf etish, quvvatni talabga moslashtirish hamda cheklangan resurslardan maksimal foydalanishni ta'minlaydi. Ayni paytda modelning cheklovi shundaki, uni tatbiq etish korxonada minimal boshqaruv malakasi va ma'lumot yig'ish tizimini talab qiladi; bu cheklov raqamlashtirish va davlat ko'magi orqali bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkin.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Ishlab chiqarish quvvati korxona ishlab chiqarish tizimining moddiy asosi bo'lib, uni boshqarish quvvatni shakllantirish, undan foydalanish va uni rivojlantirish jarayonlarini qamrab oladi hamda strategik, taktik va operativ darajalarda amalga oshiriladi.

2. Quvvatni boshqarish nazariyasi bir necha ilmiy maktab – ilmiy boshqaruv, tizimli yondashuv, ishlab chiqarish strategiyasi, cheklovlar nazariyasi, TPM va resurs nazariyasi hisssasi asosida shakllangan bo'lib, ular birgalikda yaxlit metodologik asos yaratadi.

3. Quvvatni boshqarishning asosiy tamoyillari (tizimlilik, muvozanatlilik, moslashuvchanlik, uzluksizlik, iqtisodiy samaradorlik, jamlanganlik) va funksiyalari (rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish, nazorat) kichik korxonalar uchun ham to'liq amal qiladi, biroq ularning mazmuni korxona xususiyatlariga moslashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. – lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son «Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. – lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. – lex.uz
4. Taylor Frederick Winslow. The Principles of Scientific Management. – New York: Harper & Brothers, 1911
5. Fayol Henri. Administration Industrielle et Générale (General and Industrial Management). – Paris: Dunod, 1916
6. Penrose Edith Tilton. The Theory of the Growth of the Firm. – Oxford: Oxford University Press, 1959
7. Skinner Wickham. The Focused Factory // Harvard Business Review. – 1974. –Vol. 52, No. 3.–P. 113–121
8. Hayes Robert H., Wheelwright Steven C. Restoring Our Competitive Edge: Competing Through Manufacturing. –New York: John Wiley & Sons, 1984.
9. Goldratt Eliyahu M., Cox Jeff. The Goal: A Process of Ongoing Improvement. –Great Barrington: North River Press, 1984
10. Nakajima Seiichi. Introduction to TPM: Total Productive Maintenance. –Cambridge, MA: Productivity Press, 1988
11. Bertalanffy Ludwig von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. –New York: George Braziller, 1968.
12. Slack Nigel, Chambers Stuart, Johnston Robert. Operations Management. –Harlow: Pearson Education.
13. Jacobs F. Robert, Chase Richard B. Operations and Supply Chain Management: The Core. –New York: McGraw-Hill Education.
14. Cobb Charles W., Douglas Paul H. A Theory of Production // The American Economic Review. –1928. –Vol. 18, No. 1 (Supplement).–P. 139–165.

4. Kichik korxonalar uchun moslashuvchan quvvat strategiyasi, tashqi kooperatsiya va lizing, shuningdek raqamli monitoring quvvatni boshqarishning eng maqbul vositalari hisoblanadi.

5. Taklif etilgan to'rt qatlamli kontseptual model (nazariy asos – tamoyillar – funksiyalar – moslashtirish) kichik korxonalarda quvvatni boshqarishni tizimli ilmiy asosga o'tkazish imkonini beradi.

6. Kichik korxonalarda quvvatni boshqarishni takomillashtirish korxona rentabelligini oshiribgina qolmay, importni almashtirish va mahsulot eksportini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish uchun ham zamin yaratadi.

Shunday qilib, quvvatni boshqarishning nazariy asoslarini tizimlashtirish va kichik korxonalarga moslashtirish nafaqat korxona samaradorligini, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashning muhim ilmiy-amaliy shartidir.

15. Khodiev Bobir Yunusovich, Mustafakulov Sherzod Igamberdievich, Tursunov Bobir Ovul o'g'li, Sigidov Yuriy, Khavrova Kristina. Methods for Control Efficiency Evaluation of the Production Capacities // Astra Salvensis. –2019. –Supplement No. 1.–P. 499–521.

16. Mustafakulov Sherzod Igamberdievich, Zarova Elena Viktorovna, Tikhomirova Anna Nikolaevna, Tursunov Bobir Ovul o'g'li. Research of Efficiency of Use of Production Capacity at the Enterprises of Textile Industry on the Basis of Methods of Multivariate Statistical Analysis (Namangan Region). –2019. DOI: 10.5281/zenodo.3756255.

17. Tursunov Bobir Ovul o'g'li. O'zbekistonda to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. –2017.–№5.

18. Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni me'yorlashtirishning uslubiy jihatlarlari // O'zbekiston sug'urta bozori (Insurance Market of Uzbekistan). –2026.–3-jild, 2-son.–B. 112–113. DOI: 10.55439/INS/vol3_iss2/401.

19. Qosimov H. Q., Aslanova D. X., Ergashev R. Korxona iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma). –Samarqand: SamDU nashri, 2003.

20. Narmetova Dilafruz Azamatovna. O'zbekistonda kichik biznesning iqtisodiy salohiyati: statistik tahlil va rivojlanish istiqbollari // Innovations in Science and Technologies. –2025. –Maxsus son. –B. 254–260. DOI: 10.5281/zenodo.15619810.

21. Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich. Korxona iqtisodiy salohiyatini statistik baholashning tadqiq etish uslublari // Qo'qon universiteti xabamomasi. –2024.–13-son. –B. 47–51. DOI: 10.54613/ku.v13i.1020.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Kichik biznes va tadbirkorlik: rasmiy statistika. –stat.uz (murojaat sanasi: 2026-yil iyul).

23. «O'zbekiston YaIMi 2024-yilda 1,45 kvadrillion so'mga yetdi». Gazeta.uz, 2025-yil 7-fevral. gazeta.uz.

24. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik holati va rivojlanishi haqida ma'lumot. mineconomy.gov.uz